

ABDULLA ORIPOV VA ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA QUYOSH OBRAZI TAHLILI

Xoshimova Gavxarbonu Begzod qizi,
Qarshi davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Oripov va Erkin Vohidov she'riyatidagi quyosh obrazi qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda quyosh timsolining har ikki ijodkor dunyoqarashidagi o'rni, uning badiiy funksiyalari va ramziy ma'nolari yoritilgan. Maqola davomida shoirlarning o'xshash va farqli jihatlarini she'riy misollar yordamida yoritilgan hamda quyosh obrazining milliy she'riyat taraqqiyotidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy timsol, lirik qahramon, ramziylik, metafora, she'r, she'riyat, obraz.

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ образа солнца в поэзии Абдуллы Орипова и Эркина Вохидова. Исследование освещает роль образа солнца в мировоззрении обоих творцов, его художественные функции и символическое значение. На протяжении всей статьи на поэтических примерах подчеркиваются сходства и различия поэтов, а также раскрывается важность образа солнца в развитии народной поэзии.

Ключевые слова: художественный образ, лирический герой, символизм, метафора, стихотворение, поэзия, образ.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the image of the sun in the poetry of Abdulla Oripov and Erkin Vohidov. The study highlights the role of the image of the sun in the worldview of both creators, its artistic functions and symbolic meanings. Throughout the article, the similarities and differences of the poets are highlighted using poetic examples, and the importance of the image of the sun in the development of national poetry is revealed.

Keywords: artistic image, lyrical hero, symbolism, metaphor, poem, poetry, image.

Kirish. XX asr 60-yillarida adabiyotimizga bir guruh iste'dodli shoirlar kirib keldiki, ularning ijodi o'zbek she'riyatini yangi bir bosqichga olib chiqdi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi kabi ijodkorlarning asarlari mash'um qirg'inlar va o'sha davr adabiyotida hukm surgan "konfliktsizlik" nazariyasi tufayli karaxtlashib qolgan adabiy fikrga jon baxsh etdi. O'zbek she'riyatida ro'y bergan bunday o'zgarishlar tasodifiy bo'lmay, balki umummilliy ijtimoiy uyg'onishning estetik in'ikosi edi. Shoirlarimizning ijodiy izlanishlari tufayli xalqning dardi, orzu-umidlari, shonli kechmishi, azaliy qadriyatlarini aks etgan chinakam milliy ruhga yo'g'rilgan she'rlar yaratila boshladi. [5. 38] Yozuvchi yoki shoirlarning adabiy-nazariy qarashlari badiiy asarlarni talqin qilishda muhim ochqich vazifasini o'tashi dunyo adabiyotshunosligi tajribasidan ma'lum. Shuning uchun buyuk iste'dodlarning she'riyatga, badiiyatga, iste'dod egalariga, umuman, adabiyot va san'atga qarashlari maxsus kitoblar holida nashr qilinadi. Bunday ishlarning ikki jihatdan ahamiyati ko'zga yaqqol tashlanib turadi: Birinchidan, ijodkorning badiiy-estetik kontsepsiyasi ma'lum bo'ladi. Ikkinchidan, adabiy-nazariy qarashlar xazinasini boyib, adabiyot maydoniga kirib kelayotgan xavaskorlar uchun ibrat maktabi vazifasini bajaradi.[2. 1] Abdulla Oripov va Erkin Vohidovning adabiy-nazariy qarashlaridagi farqlar o'zbek she'riyatida quyosh obrazining turlicha talqin qilinishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotimizda quyosh obrazi bevosita peyzaj lirikasi – tabiat tasvir bilan bog‘liq. Bu yo‘nalishdagi ijod namunalari Erkin Vohidov she‘riyatida salmoqni o‘rinni egallaydi. Shoir ijodidagi quyosh tasviri falsafiy mazmun, betakror tashbehlar, istioralar bilan ajralib turadi.

Quyida biz ko‘rib chiqadigan Erkin Vohidov qalamiga mansub “ Tong lavhasi” she‘ridagi quyosh obraziga berilgan tashbehni boshqa ijodkorlar ijodida uchratish qiyin.

Ufqlarga qo‘yib guldasta,
Tog‘ ortidan ko‘tardi-da bosh,
Pastga boqdi cho‘qqidan asta
Oltin qalam tutgan bir naqqosh.

Mazkur she‘rda shoirning olamni teran nigohlar ila kuzatib, oddiygina hayot manzaralaridan buyuk go‘zallik baxsh eta olish mahoratini ko‘rish mumkin. Shoir quyoshni shunchaki tabiat hodisasi emas, jonli va ijodkor bir siymo sifatida gavdalantiradi. She‘rda quyoshga "oltin qalam tutgan naqqosh" deya ta‘rif berilgan. Bu yerda quyosh nurlari "oltin qalam"ga, yer yuzidagi tonggi manzara esa naqqosh chizayotgan asarga o‘xshatilyapti. Quyosh o‘z nurlari bilan borliqni "bo‘yaydi", unga rang va jilo beradi. Ushbu misralar orqali tashxis san‘atining ham namunasi ko‘rish mumkin. Ya‘ni ijodkor insonga xos bo‘lgan “guldasta qo‘yish”, “bosh ko‘tarish”, “asta boqish” kabi sifatlarni jonsiz narsaga ko‘chirish oraqali taxxisning go‘zal namunasi yaratgan. “Oltin qalam tutgan naqqosh”ning aynan quyosh ekanligi keyingi misralarda ochiqlanadi:

Har nuqtaga sayqal berib u,
Vodiy uzra chizdi zar lavha.
So‘ng quyosh deb imzo chekdi-yu,
Tongotar deb qo‘ydi sarlavha. [3. 5,6]

Bu misralarni yangi bir kunning boshlanishi deb talqin qilishimiz ham mumkin. Chunki “Tongotar deb sarlavha qo‘yish” tasviri shunga ishora qiladi.

Abdulla Oripov lirikasi orqali o‘zbek she‘riyatiga ko‘ngil dardlarining suratlari, ruhiy iztiroblar manzarasi, armonga aylangan orzular inson sezimlarida qoldirgan izlar tasviri kirib keldi. Abdulla Oripov tuyg‘ulari quruqshagan o‘zbek she‘riyatiga o‘ychil g‘am va g‘amga qorishgan o‘y olib kirdi. Shoir alohida bir odam va uning dardlari haqida o‘yga botdi, qalam surdi. Shuning uchun ham shoir ijodidagi quyosh obrazini falsafiy umumlashtirishlar, milliy o‘zlik va ruhiy uyg‘onish timsoli sifatida talqin qilishimiz mumkin. A.Oripov lirikasida O‘zbekiston-xalq-tabiat obrazlari uyg‘unlikda ochiq bir kitobdek ko‘z o‘ngingda namoyon bo‘ladi. She‘riyatda murakkab obrazlilikdan qochish — obrazlilikdan mutlaq voz kechish emas, me‘yor saqlansa, u yaxshi obrazlilik ekanligiga A.Oripov lirikasi misolida yana bir karra qanoat hosil qilish mumkin. R.Parfi yoki E.Vohidov asarlaridan keskin farq qilgan holda, A.Oripov she‘rlari murakkab obrazlilikdan xoli. Lekin uning kuyuk fikrlari, o‘y-mushohadalari tadrijida namoyon bo‘lguchi shiddatli ohanglar toblanishi ranglar jilvasini aks ettiradi. Bu lirik qahramon

tabiati bilan belgilanadi. Chunonchi, Vatanning buguni va kelajagi to'g'risida qayg'urishi, bezovtaligi bilan xarakterlanadi. Vatan va xalq taqdirini o'tmishi bilan Uyg'unlikda tadqiq etish shoirning bosh estetik kredosi. Ana shu uch omilni bir-biriga bog'lovchi — xayol va nur(quyosh) obrazlaridir.

Shoir she'rlarida talkin etilgan davr nuri — bu hurriyat nuri, millat erki, Vatan ozodligi, ezgulikning boqiyliqi bilan yorishib ketadi. Ular bir-birini to'ldiradi, biri ikinchisini boyitib, nurlantirib turadi.

Hayot tantanasi boshlanmish, ammo
Do'stlar, nur vasliga tashlaylik nigoh,
SHu buyuk oftobning mukofotini
E'zozlab qo'yaylik aytib shukrona.

A.Oripov she'rlaridagi quyosh obrazini shaxs va jamiyat psixologiyasidagi yorug'lik va qorong'ilik bilan bog'lab quyish u qadar tog'ri bo'lmas. Uning uchun botiniy ma'naviy va zohiriy — voqelik nurlari o'rtasidagi murakkab va nozik aloqadorlik ko'proq muhimdir. Quyosh — ular o'rtasidagi hadlarni bir chetga surib, hayot va inson qalbini bir mehvarda mujassamlashtiradi, shu'lalantiradi. Shu ma'noda, nur hissiy tafakkur teranligi va boyligi bilan ajralib turadi. Bu yolg'iz A.Oripov lirikasi uchun xos xususiyatdir. Quyosh obrazining ma'nodorli, ohangdorligi she'rning ichki musqiyiligini ham ta'minlaydi. [4. 39,46,47]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Abdulla Oripov va Erkin Vohidov ijodida quyosh obrazining badiiy talqinini o'rganishda bir nechta ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-tahliliy metod asosida ikki shoir ijodida uchraydigan quyosh obrazi o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlab berildi. Bu usul orqali har ikki ijodkorning badiiy tafakkuri, ramziy tasvir vositalari hamda obraz yaratish mahorati tahlil qilindi. Shuningdek, adabiy tahlil metodi qo'llanilib, shoirlarning she'riy asarlaridagi quyosh obrazining ma'no qatlamlari, ramziy mazmuni hamda poetik funksiyasi o'rganildi. Ushbu metod yordamida obrazning g'oyaviy-badiiy yuklamasi, uning milliy ruh, vatanparvarlik, umid va hayotiylik kabi tushunchalar bilan bog'liqligi ochib berildi. Tadqiqot jarayonida kontekstual tahlil metodi ham muhim o'rin tutdi. Bu metod orqali quyosh obrazining shoirlar yashagan davr, ijtimoiy muhit va adabiy an'analar bilan bog'liqligi tahlil qilindi. Natijada obrazning nafaqat badiiy, balki ma'naviy va mafkuraviy mazmuni ham yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Zarrin quyosh obrazi o'zbek she'riyatida qadimiy ildizlarga ega bo'lib, Abdulla Oripov va Erkin Vohidov ijodida bu an'ana zamonaviy pafos bilan boyitilgan.

Erkin Vohidov ijodida quyosh obrazi ko'proq lirizm va insoniy tuyg'ular bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Shoir quyoshni tabiat go'zalligi, hayot quvonchi va inson ruhiyatining yorqinligi bilan bog'laydi. Uning she'rlarida quyosh inson qalbidagi iliqlik, mehr va hayotiy energiya timsoli sifatida talqin qilinadi. Ba'zan quyosh obrazi orqali shoir

insonning ichki kechinmalari va ruhiy holatini ifodalaydi. Buni quyidagi she'r misolida ko'rishimiz mumkin:

Qora qushlar qo'narlar
Majnuntolning shoxiga.
Boshin suvga egarlar
Boqmay sira ohiga.
Rahmi kelib bulutning,
Yig'lab to'kar yoshini.
Qushlar qochar, majnuntol
Ko'taradi boshini.
Bulutning orasidan
Quyosh kulib qaraydi.
Majnuntolning yuvilgan
Sochlarini taraydi. [3. 5]

Mazkur she'rda quyosh obrazi quvonch, iliqlik va taskin ramzi sifatida talqin qilingan. U bulutning yig'isidan keyin paydo bo'lib, tabiatni yana go'zallikka chorlaydi. Shu orqali shoir hayotdagi qayg'udan keyin ham albatta shodlik va umid kelishini badiiy tarzda ifodalaydi.

Abdulla Oripov she'riyatida esa quyosh ko'pincha yuksak ma'naviyat, haqiqat va milliy uyg'onish ramzi sifatida talqin qilinadi. Shoir quyosh obrazini xalqning kelajagi, ozodlik va umid bilan bog'lab tasvirlaydi. Uning ayrim she'rlarida quyosh inson qalbini yorituvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, zulmatga qarshi kurash timsoli sifatida talqin etiladi. Bu holat shoirning falsafiy va ijtimoiy qarashlari bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Quyidagi she'r ham buning yorqin misoli:

Keng jahon bir qadam bo'ldi men uchun,
Menga ham ochildi olam darchasi.
Yiroq Amriqoda taft sochar bu kun
O'zbek quyoshining olov parchasi. [1. 12]

Bu parchalarda quyosh obrazi ramziy ma'no kasb etib, u millatning nuri, shon-shuhrati va ma'naviy qudratini ifodalaydi. "O'zbek quyoshi" iborasi orqali shoir o'zbek xalqining iste'dodi, madaniyati va ruhiy kuchini badiiy timsol sifatida ko'rsatadi. "Yiroq Amriqoda taft sochar" degan misra esa bu nur va qudrat faqat bir hudud bilan cheklanib qolmay, balki dunyoning uzoq mamlakatlariga ham yetib borayotganini anglatadi.

Ikki shoir ijodini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, quyosh obrazi har ikki ijodkorda umumiy ramziy ma'noga ega bo'lsa-da, talqin uslubi va badiiy vazifasi jihatidan farqlanadi. Abdulla Oripov ko'proq falsafiy va ijtimoiy mazmunni ilgari surgan bo'lsa, Erkin Vohidov uni lirizm va estetik tasvir vositasi sifatida keng qo'llaydi.

Xulosa. O'zbek she'riyatida quyosh obrazi qadimdan hayot, yorug'lik va umid timsoli sifatida talqin etib kelinadi. Abdulla Oripov hamda Erkin Vohidov ijodini tahlil

qilish shuni ko'rsatadiki, har ikki shoir ham ushbu obrazdan keng va mahorat bilan foydalangan. Har ikki shoir ijodida quyosh obrazi umumiy ramziy mazmunga ega bo'lsa-da, ularning badiiy vazifasi turlicha namoyon bo'ladi: biri ko'proq falsafiy va ijtimoiy g'oyalarni ifodalasa, ikkinchisi lirizm va estetik tasvir vositasi sifatida foydalanadi. Natijada quyosh obrazi orqali o'zbek she'riyatining badiiy imkoniyatlari, ramziy ifoda usullari va poetik tafakkur kengligi yanada boyiganini ko'rish mumkin. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov va Erkin Vohidov she'riyatidagi quyosh obrazi o'zbek adabiyotining boy ramziy xazinasini hisoblanadi. Ushbu obrazlar orqali shoirlar insoniyatni yorug'likka, ezgulikka va o'zaro birdamlikka chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Oripov, Bedorlik (she'rlar) Toshkent "Yozuvchi" nashriyoti 1999-yil 12-bet.
2. Bahodir Karim "Adabiy fikrlar javhari yoxud Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlariga bir nazar" maqolasi 1-bet
3. Erkin Vohidov "Saylanma" birinchi jild "Ishq savdosi" Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati 2000-yil 5,6-betlar.
4. No'mon Rahimjonov Mustaqillik davri o'zbek she'riyati Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 2007-yil 39, 46, 47, 48-betlar.
5. Olim Usmonov "Abdulla Oripov she'rlaridagi milliy o'ziga xoslik" maqolasi 38-bet.

PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI

N M P I
1934